




2-bosqich 1-semestr.
6-mavzu:Navoiyning epik asarlari.
Xamsachilik tarixi



Adabiyot

Abdukadirova M.M.



Reja:

- 1.Navoiyning tarixiy-memuar asarlari.
- 2.Navoiyning ilmiy asarlari.
- 3.Navoiyning diniy-tasavvufiy asarlari.
- 4.Xamsachilik tarixi haqida ma'lumot.



Tayanch atamalar:

Xamsa —mustaqil besh dostondan tashkil topgan yirik liro-epik asar.

Na't — she'riyatimizda payg'ambar Muhammad alayhissalom madhiga bag'ishlangan asarlar.

Hamd — Ollohni madh etib yozilgan asarlar.

Alisher Navoiy (1441-1501)

Taxallusi -
Alisher
Navoiy ;


Husayn
Bayqaroning
do'sti

Asl ismi
Nizomiddin
Mir Alisher

10—12
yoshlaridan
she'r yoza
boshlagan

(1441.9.2. —
Hirot —
1501.3.1)

Buyuk o'zbek
shoiri, mutafakkir,
davlat arbobi






	ASAR	MAVZU	SANA
1.	“Tarixi muluki ajam”	tarix, din, tasavvuf	1488
2.	“Tarixi anbiyo va hukamo”	tarix, din, tasavvuf	1488
3.	“Nasoyim ul-muhabbat”	tarix, din, tasavvuf	1496
4.	“Vaqfiya”	tarixiy	1481-1482
5.	“Xamsat ul-mutahayyirin”	memuar	1492-1494
6.	“”Holoti Said Hasan Ardasher”	memuar	1490
7.	“Holoti Pahlavon Muhammad”	memuar	1496
8.	“Mahbub ul-qulub”	falsafiy-axloqiy	1500
9.	“Majolis un-nafois”	tazkira	1491-1493
10.	“Mezon ul- avzon”	ilmiy	1492
11.	“Muhokamat ul-lug`atayn”	ilmiy	1498
12.	“Munshaot”	memuar	1492
13.	“Mufradot”	ilmiy	1491
14.	“Lison ut-tayr”	falsafiy	1498-1499



Klaster asosida Navoiyning nasriy asarlari guruhlanadi.





Tarix, din,
tasavvuf
mavzusidagi
asarlari

"Tarixi mulki
ajam"
(1488)

"Tarixi anbiyo va
hukamo"
(1488)

"Nasoyim ul-
muhabbat"
(1496)



Sharq adabiyotida birinchi bo'lib «Xamsa» yozgan kishi buyuk ozarbayjon shoiri **Nizomiy Ganjaviydir**. U 1173 -1179-yillarda Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag'ishlab, «**Maxzan ul-asror**» («**Sirlar xazinasi**») nomli pandnoma-nasihatnoma yozadi.

1180- 1181-yillarda Iroq hukmdori To'g'ul II ning iltimosiga ko'ra muhabbat va qahramonlikni ifodalovchi «**Xusrav va Shirin**» dostonini yaratadi.

1188-yilda Shirvonshohlardan Axsatan I Nizomiyga “ **Layli va Majnun**” haqida doston yozishni buyuradi. 1196-yilda yana bir hukmdor Alovuddin Ko'rpa Arslonning topshirig'i bilan Bahrom haqidagi «**Haft paykar**» («**Yeti go'zal**») maydonga keladi.

1196- 1201-yillarda so'nggi doston - «**Iskandarnoma**» yaratiladi.

Shu tariqa, 1173-1201-yillar oralig'ida 28 yil davomida besh doston dunyo yuzini ko'radi va ular «**Panj ganj**» (“**Besh xazina**”) nomi bilan shuhrat topadi.



«Xamsa» deb atalgan dostonlar to‘plami quyidagi mavzularda bo‘ladi:

1. Besh dostondan tashkil topmog‘i.
2. Birinchi doston, albatta, pand-nasihatchilik ruhida ta‘limiy- axloqiy, falsafiy bo‘lmog‘i;
3. Ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag‘ishlanmog‘i;
4. Uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmog‘i;
5. To‘rtinchi doston Bahrom haqida;
6. Beshinchi doston Iskandar haqida yozilmog‘i shart edi.

Nizomiy Ganjaviyning "Panj ganj" dostonlar turkumi

1. «Maxzan ul-asror» (1176)
2. «Xusrav va Shirin» (1181-82)
3. «Layli va Majnun» (1188)
4. «Haft paykar» (1196)
5. «Iskandarnoma» (1206)

3-tarqatma

AN'ANAGA IZDOSHLIK
Xusrav Dehleviy "Xamsa"si
(1299-2001)

1. «Matla' ul-anvor»,
2. «Shirin va Xusrav»
3. «Majnun va Layli»,
4. «Oinai Iskandariy»
5. «Hasht bihishb».

AN'ANAGA QISMAN IZDOSHLIK
Ashraf "Xamsa"si
(1428-1444)

1. "Минҳаж ул-аброр"
"Риёз ул-ошиқин"
"Ишқнома"
"Ҳафт авранг"
"Зафарнома"

AN'ANANI SINDIRISH
Xoju Kirmoniy "Xamsa"si
(1332-1345)

1. «Ravzat ul-anvor» (1342-43)
2. «Gul va Navro'z» (1341-42)
3. «Gavharnoma» (1345)
4. «Kamolnoma» (1343)
5. «Humay va Humoyun» (1332).

Alisher Navoiy "Xamsa"si
(1483-1484)

"Hayrat ul-abror"
"Farhod va Shirin"
"Layli va Majnun"
"Sab'ayi sayyor"
"Saddi Iskandariy".

Abdurahmon Jomiy xamsa (sab'a)si
(1481-84), (1468-1486)

1. "Тухфат ул-аҳрор" (1481)
2. "Субҳат ул-аброр" (1482)
3. "Юсуф ва Зулайҳо" (1483)
4. "Лайли ва Маҷнун" (1484)
5. "Хирадномаи Искандари" (1484)
6. "Solomon va Absol" (1480)
7. "Silsilat uz-zahab" (1468-1486).


Abdibek Sheroziy "Xamsa"lari
Birinchi "Xamsa"

1. "Mazhar ul-asror"
2. "Jomi Jamshediyy"
3. "Majnun va Layli"
4. "Haft axtar"
5. "Oinai Iskandariy" Ikkinchi "Xamsa"
"Javhari fard", "Daftari dard", "Firdavs ul-orifin",
"Anvori tajalli", "Xazoini malakut".
Uchinchi "Xamsa"
"Ravzat us-sifot", "Davxat al-azhor", "Jannat al-asmor",
"Ziynat al-avroq", "Sahifat al-ixlos"




Xusrav Dehlaviy (1253—1325)
“Xamsa” sini 1299 - 1301-yillarda yaratidi: 1. «Matla' ul-anvor» (“Nurlarning boshlanmasi”)
2. «Shirin va Xusrav»;
3. «Majnun va Layli»;
4. «Hasht behisht» («Sakkiz jannat»);
5. «Oyinayi Iskandariy» («Iskandar oynasi»).

Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada Sharq adabiyotida xamsachilik an”anasi paydo bo‘ldi.



Jomiy «Xamsa»sini «Haft avrang» («Yetti taxt») deb atadi.

1. «Silsilat uz-zahab» («Oltin zanjir», 1472)
2. «Salomon va Absol» (1480 – 1481)
3. «Tuhfat ul-ahror» («Hur kishilarning tuhfası», 1481 – 1482)
4. «Sabhat ul-abror» («Poklar/Yaxshilar tasbihi», 1482-1483)
5. «Yusuf va Zulayho» (1483)
6. «Layli va Majnun» (1483)
7. «Xiradnomayi Iskandariy» (1485)



Navoiyning epik asarlari deyilganda, birinchi navbatda, ko‘z oldimizga «Xamsa» keladi. «Xamsa» - beshlik degani. Binobarin, u besh mustaqil dostonidan iborat va har bir doston ma’lum bir mavzu-voqeani keng va atroflicha masnaviy yo‘li bilan yorilib beradi.

Navoiy «Xamsa»si XV asrdagi xalqimiz ma’naviy taraqqiyotining ko‘zgusi bo‘lib, unda o‘sha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlarini, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o‘z aksini topgan.

Navoiy «Xamsa»si yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi.





*Гар ўзбек умримни
қандай яшадим,
Деб кечган йўлига
назар ташласа,
Қуёшлар макони
Асқартоғдайин
Уфқни тўсганча
юксалар "Хамса".*

Xurshid Davron



Test.

1. "Xamsa" dostonlari qaysi janrda yozilgan?
a) masnaviy b) g`azal c) musaddas d) muxammas
2. Payg`ambarlar, yarim tarixiy – yarim afsonaviy shaxslar va ular hayoti bilan bog`liq qisqa ixcham lavhalar nima deb ataladi?
a) hikoyat b) doston c) mumtoz hikoya d) afsona
3. Navoiy Muhammad Payg`ambar so`zlari bilan o`z fikrini mustahkamlab, "umm ul-xabois" ("yaramasliklar onasi") deb nimani ta`riflaydi?
a) ichkilikbozlik b) chog`irni c) dunyo d) shayton
4. "Tarixi muluki ajam" qanday mavzuda yozilgan asar?
a) memuar b) tarix, din, tasavvuf c) falsafiy-axloqiy d) ilmiy



Savollar:

1. "Xamsa" deganda nimani tushunasiz?
2. Xamsachilik an'asini kim boshlagan?
3. Qaysi ijodkorlar "Xamsa" yaratishgan?
4. Navoiy "Xamsa" sining o'ziga xosligi nimada?
5. Navoiyning epik asarlarini sanang ...
6. Xamsa yozish an'anasi nechanchi asrdan boshlangan?



Uyga vazifa: Mavzuni o‘qib-o‘rganish, internetdan qo‘shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish. Ma’lumotlarni daftarga yozish.